

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI TAYYORLASH BO'YICHA)**

G'ozg'on sh.

Bizlar “G'ozg'on shahar Mahalla va nuroniyarlarni qo'llab quvvatlash bo'limi” (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan ish direktor U.Ergashev bir tomondan va “STAR MAX 2020” MCHJ (Keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi I.Baxtiyorova ikkinchi tomondan 2022-yil 27-avgustdagি №139928 sonli bayonnomaga ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: ----- belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 1 700 000 so'mni tashkil qiladi.

3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining

15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlari pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «**Bajaruvchi**» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «**Bajaruvchi**» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «**Buyurtmachi**» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «**Buyurtmachi**» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «**Bajaruvchi**»ga taqdim qiladi.

4.4. «**Buyurtmachi**» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lojni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «**Bajaruvchi**»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «**Bajaruvchi**»ning rozilgisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «**Buyurtmachi**» tomonidan avans to'lovleri o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «**Bajaruvchi**»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «**Bajaruvchi**» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «**Bajaruvchi**» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «**Buyurtmachi**»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «**Bajaruvchi**» «**Buyurtmachi**»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «**Bajaruvchi**» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «**Bajaruvchi**» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlar va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «**Bajaruvchi**» tomonidan to'lanadi.

5.3. «**Bajaruvchi**» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «**Buyurtmachi**»ning rozilgisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovleri o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «**Bajaruvchi**» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejallashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovleri amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjalari uchun muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolangandan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab **20 kun** ichida «**Bajaruvchi**» tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «**Buyurtmachi**»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «**Bajaruvchi**» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini «**Buyurtmachi**» bergen topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «**Bajaruvchi**» «**Buyurtmachi**» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «**Buyurtmachi**» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to‘xtatish to‘g‘risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishi shart. Ishlarning to‘xtatilishi tomonlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko‘zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G‘aznachilikda ro‘yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «**Bajaruvchi**» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko‘rsatilgan ishlar bajarilmagan taqdirda, «**Buyurtmachi**» kamida 5 (besh) kun oldin «**Bajaruvchi**»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan ishlarni to‘xtatish to‘g‘risida yozma xabar bergen vaqt o‘zaro hisob-kitob qilish vaqtি hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo‘yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA’LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «**Bajaruvchi**» konfidensial hisoblanadigan ma’lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «**Buyurtmachi**»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo‘lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko‘radi.

8. YENGIB BO‘LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo‘lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to‘liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro‘y bergen vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo‘lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u holda «**Buyurtmachi**» va «**Bajaruvchi**» ishlarni davom ettirish yoki ularni to‘xtatish uchun qanday choralar ko‘rilishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmslik, shu jumladan noqonuniy to‘lovlar taklif qilmaslik, bunday to‘lov larga ruxsat bermaslik, va’da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko‘rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo‘lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to‘lamaydilar.

10. QO‘SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «**Bajaruvchi**» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «**Buyurtmachi**»ni mazkur shartnomaning 6-bo‘limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo‘limida belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshiradi.

10.2. O‘zaro muloqat yo‘li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnomaga predmeti bo'yicha taraflarning shartnomaga tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariiga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnomaga amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (bes) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnomaga narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnomaga bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnomalar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnomaga o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: G'ozg'on shahar Mahalla va nuroniyarlarni qo'llab quvvatlash bo'limi.

Manzili: G'ozg'on shahar "Tumar" MFY A.Temur 1-uy
Bank: Markaziy bank Toshkent shahar

L/s: 100022860124127011906259003

STIR: 207330520

MFO: 00014

OKED:

Direktor _____

U.Ergashev

"BAJARUVCHI"

Nomi: "STAR MAX 2020" MCHJ

Manzili: Karmana tuman "Kalavot" MFY 7-uy
Bank nomi: O'zsanoatqurilish bank Shayxontoxur filial


X/R: 20208000905238847001

MFO: 00440

STIR: 307481362

OKNX:

Direktor:





Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR
Code ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	UCHKUN ERGASHOV TURSUNOVICH
Imzolangan sana	29 авг 2022 18:01
Hujjat kodi	FV1401531884
Hulosa kodi	RN5562802124

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№

1. Loyihaning turi:

Shartnoma

2. Loyihaning nomi:

Haq evaziga xizmat ko'rsatish to'g'risida

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

G'ozg'on shahar mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi,
27.08.2022-yil

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

G'ozg'on shahar mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi va "Star Max 2020" MCHJ o'rtaida umumiy qiymati 1 700 000 (bir million yetti yuz ming) so'm bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash to'g'risidagi shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori talablariga muvofiq tuzilgan.

Taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilikka, xususan O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi" 670-I-son Qonuni talablariga mos keladi.

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz boshlig'i



S.S.Safarov
29.08.2022-yil